

Mingtepada arxeologik tadqiqotlar davom etmoqda

O'zR FA Milliy arxeologiya markazi xodimlari Mingtepa arxeologik yodgorligida tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

Yodgorlik hozirgi Marhamat shahrining sharqiy chegarasiga tutashib ketgan. Mahalliy aholi tepaliklar ko'p bo'lgani uchun uni Mingtepa deb ataydi. Bu shahar xarobasi Farg'ona antik yodgorliklari ichida eng yirigidir. Shahar uch qismdan iborat: ark, ichki va tashqi shahar. Ichki shahar maydoni 41 gektar, yodgorlik tashqi shahar bilan qo'shib hisoblaganda 270 gektardan ortiq maydonni egallaydi.



Ma'lumki, Xitoy yilnomalari qadimgi Farg'ona podsholigi Davanda 70 dan ortiq katta va kichik shaharlar bo'lgan deb xabar beradilar. Manbalarda ulardan uchtasining nomlanishi aytib o'tiladi: Ershi, Yuchen va Guyshan. Mingtepa shahar xarobasini dastlab A.N. Bernshtam podsholik poytaxti Ershi bo'lishi kerak, deb fikr bildirgan. Xitoy manbasiga asosan, Ershi birinchidan, vodiy sharqiy tomonida joylashgan; ikkinchidan, Mingtepada xitoylar bostirib kirgan paytdagi (mil. avv. II asr) qalin madaniy qatlamlar va ular qamal qilgan devorga juda o'xshaydigan mudofaa inshootlari (ichki va tashqi devorlar) mavjud; uchinchidan, antik davrning Mingtepachalik ulug'vor va katta yodgorlik vodiya hozircha topilgani yo'q.



Mingtepa bizning fikrimizcha "katta shahar" (Xitoychada "dao chen") tipidagi shaharlar qatoriga kiradi. Xitoy manbalari xabaricha, Davanda ikki qator himoyalangan shaharlar bo'lgan. Hozirda olib borilgan arxeologik natijalar Mingtepani ana shunday shaharlar qatoriga kiritishga asos bo'ladi. Ta'kid joizki, birorta Xitoy manbasida boshqa birorta davlatni poytaxti degan termin uchramaydi. Xitoyliklar Ginshi termini bilan o'z davlatlari poytaxtlarinigina tushunganlar. Boshqa davlatlar poytaxtlarini du ya'ni rezidentsiya deb ataydilar.

Shahar rejasi samodan qaraganda parallelogramm ko'rinishga ega, kishini ikki qator mahobatli mudofaa inshootlari va ulardagi burjlar hayratga soladi. O'tgan asrning 50-yillarda olingan rejasida ark, ichki va tashqi shahar aniq ko'rinadi, keyinchalik ularning ko'plari buzib yuborilgan. Ichki shaharga kirish uch yoki to'rt tomondagi darvozalardan bo'lgan, asosiy darvoza esa g'arbiy mudofaa devorida o'rta qismida joylashgan.

2020-yilgi ilmiy qidiruv ishlari shimoli-g'arbiy bo'lakda, yodgorlik markazida alohida katta tepalikda, ya'ni, ark atrofida olib borilmoqda. Qazishmalar O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi "Markazlashgan investitsiyalar hisobidan moliyalashtiruvchi obyektlarni qurish, rekonstruktsiya qilish, mukammal va joriy ta'mirlash bo'yicha buyurtmachi xizmati" tomonidan moliyalashtirilgan. Asosiy maqsad ko'hna shaharning stratigrafiyasi, mudofaa tizimi, hunarmandchiligi, san'ati to'g'risida yangi ma'lumotlarni qo'lga kiritishdan iborat. Buning uchun Mingtepaning uchta nuqtasida 80 kv metr maydonda qazishmalar boshlandi va davom etmoqda.